

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR BILAN ISHLASHDA MILLIY QADRIYATLARNING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Berdiyeva Muxabbat Meyliyevna

Termiz davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim kafedrası professori

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasida milliy qadriyatlarning tutgan o'ri va ularning tarbiyaviy imkoniyatlari tahlil qilinadi. Bolalik inson hayotidagi eng muhim bosqichlardan biri bo'lib, bu davrda shakllanayotgan axloqiy, estetik va ijtimoiy me'yorlar butun hayot davomida inson shaxsiyatiga ta'sir ko'rsatadi. Aynan shu jihatdan qaralganda, milliy qadriyatlar — urf-odatlar, an'analar, xalq og'zaki ijodi, milliy urf-me'yorlar, oila va jamiyatga xos axloqiy tushunchalar — bolalar ongiga barvaqt singdirilishi lozim bo'lgan asosiy tarbiyaviy omillardan biridir. Maqolada O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimida milliy qadriyatlarni joriy etish yo'llari, tarbiyachining roli, oila va ta'lim muassasasi o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, milliy qadriyatlarga asoslangan didaktik materiallardan foydalanish, o'yinlar, ertaklar, xalq og'zaki ijodiyoti namunalarini tarbiya jarayoniga kiritish orqali bolalarda vatanga sadoqat, mehr-oqibat, hurmat, mehnatsevarlik kabi xislatlarni shakllantirish mexanizmlari yoritib beriladi.

Maqolada nazariy mulohazalar bilan bir qatorda amaliy tajribalar va kuzatuvlarga ham asoslangan holda, milliy qadriyatlar tarbiyaning ajralmas tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, milliy qadriyatlar asosida olib borilgan tarbiyaviy ishlar bolalarda ijtimoiy faollikni kuchaytiradi, axloqiy mezonlarni to'g'ri anglashga yordam beradi va ularni jamiyatga foydali inson etib shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, milliy qadriyatlar, tarbiya, axloqiy rivojlanish, tarbiyachi, didaktik o'yin, xalq og'zaki ijodi, urf-odat, oila, ijtimoiy moslashuv, bolalar psixologiyasi

Kirish

Inson shaxsining shakllanishida erta yosh davri, ayniqsa, maktabgacha ta'lim bosqichi alohida ahamiyatga ega. Zero, aynan shu davrda bola tafakkuri, dunyoqarashi, axloqiy qarashlari va ijtimoiy xulq-atvori asoslari shakllanadi. Shu boisdan, maktabgacha ta'lim tizimi nafaqat bolalarni maktabga tayyorlash balki ularning shaxsiy rivojlanishiga zamin yaratuvchi muhim ijtimoiy institut sifatida qaraladi. Tarbiya jarayonida bolaning milliy qadriyatlar ruhida kamol topishi, Vatanga, xalqiga, oilasiga nisbatan hurmat va sadoqat

tuyg'ularini erta bosqichda shakllantirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Milliy qadriyatlar – bu har bir xalqning asrlar davomida shakllangan ma'naviy boyligi, urf-odatlar, madaniy merosi, axloqiy me'yorlari va hayot tarzining in'ikosi bo'lib, ular yosh avlod tarbiyasida kuchli ta'sirchan vosita vazifasini bajaradi. Bolalar ongiga milliy qadriyatlarni singdirish ularning ijtimoiylashuvi, shaxsiy me'yorlarini shakllantirish hamda o'z millatiga hurmat bilan qarashini ta'minlaydi. Shu jihatdan olib qaralganda, maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyachilarning vazifasi faqat didaktik maqsadlardangina iborat bo'lmay, balki bolalarga xalqona urf-odatlar, qadriyatlar, an'analar va madaniy meros elementlarini tanitish orqali ularni milliy ruhda tarbiyalashdan ham iboratdir.

Bugungi globallashuv sharoitida ko'plab xorijiy ta'sirlar yosh avlodning dunyoqarashi va qadriyatlar tizimiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shunday bir sharoitda maktabgacha yoshdagi bolalarga milliy o'zlikni anglash, tarixiy-madaniy merosga hurmat, ota-bobolar yo'lini davom ettirish g'oyalarini singdirish orqali ularni mustahkam axloqiy poydevor asosida kamol toptirish zaruriyati yuzaga chiqmoqda. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim-tarbiya jarayoniga milliy qadriyatlarga asoslangan metodik yondashuvlarni joriy etishni taqozo etadi.

Mazkur maqolada milliy qadriyatlarning mazmun-mohiyati, ularning tarbiyaviy funksiyasi, maktabgacha ta'lim muassasalarida bu qadriyatlarni bolalarga singdirish mexanizmlari, tarbiyachi va ota-onaning hamkorligi, shuningdek, amaliy tajribalar misolida bolalarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishidagi ijobiy natijalar atroflicha tahlil qilinadi.

Metodlar

Tadqiqot ishida maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash jarayonini ilmiy asosda o'rganish maqsadida zamonaviy pedagogik, psixologik va etnopedagogik yondashuvlarga asoslangan bir nechta ilmiy-uslubiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Ularning har biri bolalar tarbiyasida milliy qadriyatlarning o'rni va ularning samaradorligini aniqlashda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qildi.

1. Kuzatuv metodi. Tadqiqotda maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiya jarayonini tabiiy muhitda kuzatish orqali bolalarning o'zaro munosabatlari, tarbiyachilar tomonidan qo'llanilayotgan milliy qadriyatlarga oid metodlar va uslublar, bolalarning bu qadriyatlarga bo'lgan munosabati bevosita tahlil qilindi. Ushbu metod yordamida bolalarda milliy urf-odatlar, o'zbekona qadriyatlarga nisbatan qiziqish va munosabat shakllanishining darajasi aniqlashga harakat qilindi.

2. Suhbat va intervyu usuli. Tadqiqot doirasida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan tajribali tarbiyachilar, psixologlar va ota-onalar bilan chuqurlashtirilgan suhbatlar tashkil etildi. Ushbu suhbatlar orqali milliy qadriyatlarni

bolalarga singdirishdagi amaliy tajriba, mavjud muammolar, samarali metodik yondashuvlar haqida batafsil ma'lumotlar olindi.

3. Anketaviy so'rovnoma. Tadqiqotning muhim bosqichlaridan biri sifatida tarbiyachilar va ota-onalar orasida tuzilgan anketalar orqali ularning milliy qadriyatlar haqidagi bilimlari, amaliyotda qo'llash darajasi va bolalarga ta'sir qilish mexanizmlari o'rganildi. Anketalar statistik tahlil asosida umumlashtirilib, asosiy yo'nalishlar va muammoli nuqtalar aniqlandi.

4. Pedagogik eksperiment. Tajriba-sinov ishlari ikki bosqichda amalga oshirildi: diagnostik (boshlang'ich) bosqich va yakuniy (taqqoslovchi) bosqich. Dastlabki bosqichda bolalarning milliy qadriyatlar haqidagi boshlang'ich tushunchalari aniqlab olindi. So'ngra maxsus ishlab chiqilgan tarbiyaviy mashg'ulotlar majmuasi asosida milliy qadriyatlarga oid tarbiya metodikasi joriy etildi. Yakuniy bosqichda bolalarning o'zgarish darajasi, o'zlashtirish ko'rsatkichlari va shaxsiy sifatlaridagi o'sish dinamikasi kuzatildi.

5. Kontent-tahlil (mazmuniy tahlil) usuli. Tadqiqot doirasida maktabgacha ta'lim muassasalarida foydalanilayotgan o'quv-metodik qo'llanmalar, ertaklar, bolalar uchun mo'ljallangan adabiyotlar va didaktik materiallar tahlil qilindi. Ularning mazmunida milliy qadriyatlarga oid ifodalar, obrazlar, qahramonlar va mavzular qanchalik keng yoritilganligi baholandi.

6. Statistik tahlil usuli. Yig'ilgan ma'lumotlar asosida anketalar natijalari, tajriba-sinov ishlari ko'rsatkichlari va kuzatuv natijalari statistik usullar asosida umumlashtirildi. Natijalar jadval, diagramma va foizli ko'rsatkichlar shaklida taqdim etilib, ularning pedagogik jihatdan izohi berildi.

Tadqiqot jarayonida har bir metod muayyan maqsadga qaratilgan bo'lib, ularning uyg'un qo'llanilishi orqali milliy qadriyatlarning maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasidagi o'rni chuqur ilmiy jihatdan asoslab berildi. Olingan natijalar esa keyingi bo'limlarda tahliliy tarzda yoritilgan.

Natijalar

Tadqiqot davomida olib borilgan kuzatuvlar, suhbatlar, anketaviy so'rovlar va pedagogik eksperiment asosida quyidagi muhim natijalarga erishildi:

1. Tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda milliy qadriyatlarning ta'siri yuqori ekanligi isbotlandi. Tajriba-sinov ishlari orqali aniqlanishicha, milliy qadriyatlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar bolalarda axloqiy tushunchalarni o'zlashtirish, o'zgalarga nisbatan hurmat, mehr-oqibat, mehnatsevarlik kabi ijtimoiy fazilatlarining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Eksperimental guruhda qatnashgan bolalarning ko'pchiligi o'z shaxsiy fazilatlarini ijobiy tomonga o'zgartira olgan.

2. Tarbiyachilarning milliy qadriyatlar bo'yicha bilim va ko'nikmalar darajasi farqlanadi. Anketaviy so'rovlar shuni ko'rsatdiki, tarbiyachilarning bir qismi milliy

qadriyatlarni tarbiya jarayonida muntazam qo'llab kelayotgan bo'lsa-da, ko'pchilik tarbiyachilar bu borada nazariy bilimga ega bo'lsalarda, amaliy yondashuvda muayyan qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bu esa ularni qayta tayyorlash, metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash zaruratini ko'rsatadi.

3. Ota-onalarning ishtiroki bolalardagi natijalarni kuchaytiradi. Suhbatlar orqali aniqlanishicha, bolalarning milliy qadriyatlarga oid tasavvurlari va ularni hayotga ta'tbiq etish darajasi oiladagi tarbiya uslubiga ham bevosita bog'liq. Oilaviy muhitda qadriyatlar e'tiborga olinadigan, ota-onalar farzandlariga xalq og'zaki ijodi, urf-odatlar haqida gapirib beradigan oilalarda tarbiyalanayotgan bolalar ko'proq ijtimoiy faollik va hurmat tuyg'usi bilan ajralib turadi.

4. Didaktik materiallar tarkibida milliy qadriyatlar yetarli darajada ifodalanmagan. Kontent-tahlil natijalariga ko'ra, maktabgacha ta'lim muassasalarida foydalanilayotgan ba'zi o'quv va tarbiyaviy materiallar tarkibida milliy qadriyatlarga oid obrazlar, mavzular va personajlar son jihatdan yetarli emas. Bu esa bolalarning ushbu qadriyatlar bilan bevosita tanishish imkoniyatlarini cheklaydi.

5. Pedagogik yondashuvlarda innovatsion va xalqona uslublarni uyg'unlashtirish yuqori natija beradi. Milliy qadriyatlarga asoslangan ertaklar, xalq o'yinlari, maqollar, sahnalashtirilgan mashg'ulotlar orqali o'tkazilgan tarbiya darslari bolalarning bilim, ko'nikma va ijtimoiy fazilatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Shuningdek, didaktik o'yinlar orqali qadriyatlar singdirilishi bolalarning faol ishtirokini ta'minlab, ularning eslab qolish va hayotda qo'llash qobiliyatini kuchaytirgan.

6. Milliy qadriyatlarni singdirish bolalarda o'zlikni anglash tuyg'usini mustahkamlaydi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, milliy kiyimlar, xalq musiqa asarlari, urf-odatlar haqida ma'lumot berilganida bolalarda o'z millatiga nisbatan iftixor hissi, tarixga qiziqish va o'zini jamiyat a'zosi sifatida his qilish tuyg'usi kuchayadi. Bu holat esa ularning shaxsiy kamoloti uchun asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Yuqoridagi natijalar maktabgacha ta'lim tizimida milliy qadriyatlarni chuqur va tizimli ravishda joriy etish, tarbiyachilarni zarur bilim va vositalar bilan ta'minlash, ota-onalar bilan faol hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali tarbiyaviy samaradorlikni keskin oshirish mumkinligini ko'rsatmoqda.

Muhokama

Tadqiqot davomida olingan natijalar maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasida milliy qadriyatlarning o'rni dolzarb va ta'sirchan omil ekanini yaqqol ko'rsatdi. Bugungi globallashuv sharoitida axborot oqimining kuchayishi, madaniyatlartar qo'shilish holatlari, xorijiy qadriyatlarning keng tarqalishi yosh avlodning ongida o'zgarishlar sodir bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, maktabgacha ta'lim tizimida milliy qadriyatlarga tayangan holda olib borilayotgan tarbiyaviy faoliyat

bolalarda milliy o'zlikni anglash, tarixiy-madaniy merosga hurmat va axloqiy ideallarga intilish hissini uyg'otish imkonini beradi.

Muhim jihatlardan biri shundaki, maktabgacha yosh – bu shaxsiyatni shakllantirishda eng sezgir bosqich hisoblanadi. Shu davrda bola qanday muhitda tarbiyalansa, qanday qadriyatlar bilan tanishtirilsa, keyinchalik uning xulqi, dunyoqarashi, qarashlari aynan shu asosda shakllanadi. Tadqiqotda kuzatilganidek, bolalar milliy ertaklar, xalq qo'shiqlari, qadimiy o'yinlar, maqol va matallar orqali hayotiy saboqlarni tezroq anglaydi va ularni real hayotda qo'llashga harakat qiladi. Bu esa pedagogik yondashuvlar ichida xalqona tarbiya metodlarining o'rnini alohida ta'kidlaydi.

Biroq mavjud amaliyotda bu boradagi ishlar hamma joyda bir xil darajada yo'lga qo'yilgan deb bo'lmaydi. Ko'plab maktabgacha ta'lim muassasalarida didaktik materiallarning mazmunida milliylik yetarli darajada yoritilmagan, tarbiyachilar esa nazariy bilimga ega bo'lsa-da, amaliy yondashuvda murakkabliklarga duch kelmoqda. Ayniqsa, zamonaviy texnologiyalarning keng kirib kelganligi bolalarni sun'iy obrazlarga bog'lab qo'yayotgani, bu esa o'z milliy qadriyatlariga bo'lgan qiziqishni susaytirayotganini ham e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi.

Shu boisdan ham milliy qadriyatlarni tarbiya jarayoniga muvaffaqiyatli kiritish uchun kompleks yondashuv zarur. Tarbiyachilarni maxsus o'quv kurslari orqali qayta tayyorlash, ular uchun amaliy qo'llanmalar, video-darslar, milliy o'yinlar majmuasini ishlab chiqish, darslik va o'quv vositalarini boyitish lozim. Bunday choralar tarbiyachining o'z ishiga bo'lgan ishonchini kuchaytiradi, natijada tarbiya sifati oshadi.

Bundan tashqari, oilaning o'zni bu jarayonda beqiyos. Tadqiqotda aniqlanishicha, ota-onalar ishtirokidagi tarbiyaviy tadbirlar, milliy bayramlarga tayyorlanish, ota-onalar tomonidan bolalarga xalq ertaklari, dostonlar, tarixiy shaxslar haqidagi hikoyalar aytib berilishi bolalarning dunyoqarashini boyitadi. Afsuski, hozirgi zamonda ayrim oilalarda bu jihat sust kuzatilmoqda. Bolani faqat bog'chaga topshirish, tarbiyani mutlaqo ta'lim muassasasiga yuklab qo'yish ko'plab tarbiyaviy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shuning uchun ta'lim muassasasi va oila o'rtasida doimiy hamkorlikni yo'lga qo'yish, tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish zarur.

Tadqiqot jarayonida shuningdek, innovatsion yondashuvlar bilan milliy qadriyatlar uyg'unlashganda yuqori samaradorlikka erishish mumkinligi aniqlandi. Masalan, interfaol o'yinlar, sahnalashtirilgan mashg'ulotlar, raqamli darsliklar orqali milliy qadriyatlarni bolalarga zamonaviy shaklda etkazish mumkin. Muhimi, bu yondashuvlar bolalarning qiziqishini oshirib, ularni faol ishtirok etishga undaydi. Umuman olganda, milliy qadriyatlar — bu tarbiyaning ildizidir. Bu ildiz qanchalik chuqur singdirilsa, bola shunchalik barqaror, ongli va mas'uliyatli shaxs bo'lib kamol topadi. Har qanday ilg'or pedagogik texnologiya ham milliylikdan ajralgan holda samarali bo'la olmaydi. Shu sababli, maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiya konsepsiyasining markazida aynan

milliy qadriyatlar turishi lozim. Bu nafaqat pedagogik vazifa, balki millatning ma'naviy xavfsizligini ta'minlovchi strategik masaladir.

Xulosa

Tadqiqot natijalari maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasida milliy qadriyatlar beqiyos tarbiyaviy kuchga ega ekanligini ko'rsatdi. Ushbu qadriyatlar bolaning shaxsiy rivojlanishi, axloqiy qarashlari, jamiyatdagi o'rnini anglash hamda milliy o'zlikni shakllantirishda asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi. Erta bolalik davrida milliy urf-odatlar, an'analar, xalq og'zaki ijodi va boshqa ma'naviy boyliklarga asoslangan tarbiya bola tafakkurining sog'lom shakllanishiga, insoniy fazilatlarning barvaqt shakllanishiga zamin yaratadi.


Tadqiqot doirasida aniqlanishicha, milliy qadriyatlarga asoslangan o'yinlar, ertaklar, sahnalashtirilgan mashg'ulotlar orqali tarbiya jarayonini olib borish bolalarda ijtimoiy moslashuv, mehr-oqibat, hurmat, vatanparvarlik kabi ijobiy xislatlarning rivojlanishiga kuchli turtki beradi. Tarbiyachining bilim va ko'nikmalari, ota-onaning ishtiroki, o'quv-metodik materiallarning boyligi va didaktik vositalarning milliy ruhda tayyorlanganligi bu jarayonda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, ayrim hollarda milliy qadriyatlarning ta'lim-tarbiya jarayoniga kiritilishi yuzaki, tizimsiz va takroriy xususiyat kasb etmoqda. Bu esa bu boradagi ishlarni chuqurlashtirish, pedagoglar tayyorgarligini takomillashtirish va ota-onalar bilan hamkorlikni mustahkamlashni taqozo etadi.

Kelgusida maktabgacha ta'lim tizimida milliy qadriyatlar asosida ishlab chiqilgan kompleks dasturlar, elektron resurslar, video-mashg'ulotlar, ertaklar bazasi va xalqona pedagogika asoslarini targ'ib etuvchi metodik qo'llanmalarni yaratish zarur. Bunday chora-tadbirlar bolalarning axloqiy, estetik, ijtimoiy va ma'naviy jihatdan barkamol shaxs bo'lib shakllanishiga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari shunchaki ta'lim beruvchi emas, balki bolada milliy o'zlikni uyg'otuvchi, ijtimoiy qadriyatlarni singdiruvchi, ma'naviyatga yo'naltiruvchi muhim ijtimoiy institutga aylanishi lozim. Milliy qadriyatlar esa ushbu institutning asosiy g'oyaviy tayanchi bo'lishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent: Adolat, 2020.
2. Maktabgacha ta'limning davlat standart. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, 2021.
3. Abduqodirov A. "Pedagogik texnologiyalar asoslari". – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022.

- 
4. Karimova R. “Milliy qadriyatlar – tarbiyaning poydevori”. // Ma’naviyat, 2021, №4.
 5. Axmedova M. “Maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy tarbiya”. – Samarqand: Zarafshon, 2020.
 6. Jo‘rayev Sh. “Xalq pedagogikasi va maktabgacha ta’lim”. – Buxoro: Ilm ziyo, 2019.
 7. Sharipova M. “Maktabgacha ta’limda tarbiyaviy faoliyat metodikasi”. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
 8. Qodirova N. “Bolalar psixologiyasi asoslari”. – Toshkent: Ilm, 2020.
 9. Tursunova D. “Milliy o‘yinlar va ular orqali tarbiya”. // Ilmiy-amaliy pedagogika jurnali, 2022, №3.
 10. Rasulova G. “Ertaklar orqali axloqiy tarbiya”. – Toshkent: Ma’rifat, 2021.
 11. UNESCO. “Early Childhood Care and Education”. – Paris, 2020.
 12. Vygotsky L.S. “Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes”. – Harvard University Press, 1978.